

IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA INNOVATSION KOMPONENT

Xudaynazarova D.X.

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti katta
o'qituvchisi*

Annotatsiya: Innovatsion iqtisodiyotning rivojlanishi zamonaviy sharoitda davlatning raqobatbardoshlik darajasini oshirishni ta'minlaydi. Maqolada "innovatsiya" tushunchasi yangilik sifatida va iqtisodiy kategoriya sifatida ochib berilgan. Raqamlashtirish innovatsion rivojlanishga yo'naltirilgan iqtisodiy jarayonlarni harakatlantiruvchi kuch bo'lib xizmat qilayotgan sharoitlarda innovatsiyalarni joriy etish xususiyatlari ko'rib chiqilgan. Raqamlashtirish sharoitida davlatlar iqtisodiy rivojlanishining asosiy istiqbolli yo'nalishlari ko'rib chiqilgan.

Аннотация: Развитие инновационной экономики обеспечивает повышение уровня конкурентоспособности государства в современных условиях. В статье раскрывается понятие «инновации» как новшества и экономической категории. Рассмотрены особенности внедрения инноваций в условиях, когда цифровизация выступает в качестве движущей силы экономических процессов, направленных на инновационное развитие. Рассмотрены основные перспективные направления экономического развития государств в условиях цифровизации.

Annotation: The development of an innovative economy ensures an increase in the level of competitiveness of the state in modern conditions. The article reveals the concept of "innovation" as an innovation and an economic category. The features of the introduction of innovations in the conditions when digitalization acts as a driving force of economic processes aimed at innovative development are considered. The main promising directions of the economic development of states in the context of digitalization are considered.

Iqtisodiy jarayonlarni raqamlashtirish davlat siyosatining zamonaviy yo'nalishlaridan biridir. Iqtisodiyotni raqamlashtirish ham nazariy, ham amaliy jihatdan ilmiy tadqiqotlar uchun dolzarb mavzudir. Buning sababi, davlat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish maqsadida innovatsion texnologiyalarni yaratish va rivojlantirish jarayonida raqamlashtirish katta rol o'ynamoqda. Tadqiqot muammosi sifatida raqamli iqtisodiyot institutlarini shakllantirish va rivojlantirish, zamonaviy davlatda innovatsion komponentni shakllantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish imkoniyatlarini o'rganish ko'rib chiqildi.

Raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi davlat va jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlari va barqaror dinamikasini oldindan belgilab beradi. Innovatsiyalar bilan bog‘liq iqtisodiy jarayonlarni jadallashtirishning harakatlantiruvchi kuchi sifatida zamonaviy raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish xususiyatlari ko‘plab zamonaviy tadqiqotchilar, shu jumladan O.V. Bartyuk [1], J.U. Qambarova [2], A.A. Kisurkin [3], I.L. Kovalyov [4], L.A. Milnikova [5], I.V. Solovyova, L.I. Ushvitskiy [6], E.V. Shilova [7] va boshqa mualliflar ishlarida ko‘rib chiqilgan.

Tadqiqot maqsadi - raqamli iqtisodiyotning zamonaviy sharoitida innovatsiyalarni yo‘lga qo‘yish xususiyatlarini ko‘rib chiqishdir.

Zamonaviy iqtisod sharoitida aynan bilimlarga asoslangan innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish orqali iqtisodiy o‘shish istiqbollariga erishish va davlatning jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirish mumkin.

“Innovatsiya” tushunchasini tavsiflab, L.A. Milnikova o‘zining ilmiy ishlarida ba’zi olimlar “innovatsiya”ni “yangi kiritma” deb o‘rganishlarini, boshqalar esa uni innovatsion faoliyat natijasi deb ta’riflashlarini, boshqalar esa yangilikka sarmoya sifatida tushunishlarini ko‘rsatgan. Shubhasiz, innovatsiya - bu ilmiy va tadbirkorlik faoliyatining yakuniy natijasi holidagi yangilik bo‘lib, ilmiy loyihaga sarmoya sifatida talqin etiladi. Innovatsiyalar iqtisodiy kategoriya sifatida innovatsion jarayonlarda ishtirok etuvchi bilimlar majmui sifatida qaraladi, va o‘z navbatida bu iqtisodiy samara beradigan va zamonaviy jamiyat ehtiyojlarini qondiradigan texnologik o‘zgarishlarni belgilovchi harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi. Innovatsiyalarning roli doimiy ravishda o‘shib bormoqda va innovatsiya, innovatsion jarayon, innovatsion salohiyat, raqamlashtirish tushunchalari bilan bog‘liq. Bu jihat innovatsion rivojlanish dinamikasini ko‘rsatadigan harakat elementlarining mavjudligini tavsiflaydi [5].

Ustuvor innovatsion rivojlanishni amalga oshirish ichki innovatsion salohiyat va boshqaruvning samarali ta’siri tufayli yuzaga keladi. Innovatsion rivojlanish strategiyasi davlatdagi innovatsion jarayonlarni tartibga solish uchun ishlab chiqilgan. Muayyan boshqaruv ta’sirini ishlab chiqishda zamonaviy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanish shartlari va omillarini hisobga olish kerak [6].

O.V.Bartyukning ta’kidlashicha, keng ma’noda innovatsion rivojlanish va iqtisodiy o‘shish omillari deganda ma’lum bir miqdoriy va sifatiy iqtisodiy ko‘rsatkichlarning ijobiy o‘zgarishiga yordam beradigan jarayonlar tushunilishi kerak. Muallifning fikriga ko‘ra, innovatsion iqtisodiy o‘shish omillarini ta’sir qilish usuli bo‘yicha shunday tasniflashni ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir:

1) to‘g‘ridan-to‘g‘ri - innovatsion salohiyatni shakllantirishga va innovatsiyalarni amaliyotda qo‘llash samaradorligiga ta’sir qiluvchi omillar. Bu guruh omillarining shakllanishiga milliy innovatsion tizimning (MIT) ichki elementlari va resurslari ta’sir ko‘rsatadi;

2) bilvosita - innovatsion salohiyatni shakllantirish va uni amalga oshirish imkoniyatlarini yaratuvchi omillar. Ushbu guruh omillarining shakllanishiga MITning tashqi elementlari ta'sir qiladi [1].

A.A.Kisurkinning tadqiqotida mintaqaning innovatsion rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillarning tasnifi berilgan bo'lib, ular 12 ta blokga bo'lingan ko'p mezonli tasniflash usuli bilan olingan va o'rganish obyektiga ta'sir qilishi bo'yicha ular barcha omillarning ma'lum bir usuliga mansubligiga qarab parchalanishini nazarda tutadi. Muallif mamlakat, mintaq va yoki viloyatning innovatsion rivojlanish darajasini aniqlash imkonini beruvchi 75 ta omilni aniqlagan [3]. Innovatsion rivojlanishning asosiy tasniflash mezonlari va omillari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Tizimlarning innovatsion rivojlanish omillari

№	Tavsiflanish mezonlari	Innovatsion rivojlanish omillari
1	Ta'sir qilish darajasi	Makrodarajali, mezodarajali
2	Iqtisodiyot subyektiga munosabati	Tashqi, ichki
3	Faoliyat sharoitlariga munosabati	Subyektiv, obyektiv
4	Ta'sir qilish xarakteri	To'g'ridan-to'g'ri, bilvosita
5	Ta'sir qilish usuli	Vositali, vositasiz
6	Tarqalish darajasi	Umumiy, maxsus
7	Muhitga munosabat	Talab, taklif
8	Rivojlanishdagi roli	Asosiy, yordamchi
9	Ta'sir etish darajasi	Muhim, ahamiyatsiz
10	Ta'sir etish oqibatlari xarakteri	Ijobiy, salbiy
11	Namoyon bo'lish chastotasi	Doimiy, o'zgaruvchan
12	Boshqarish imkoniyatlari	Boshqariluvchi, shartli ravishda boshqariluvchi
13	Amalga oshirish shakli	Moddiy, moddiy emas
14	Nazorat imkoniyatlari	Nazoratli, nazoratsiz
15	Qabul qilinadigan qarorlar	Strategik, taktik
16	Faollik darajasi	Faol, neytral

Shunday qilib, ilmiy adabiyotlarda innovatsion jarayonlarning natijalarini belgilovchi omillar yetarli darajada batafsil o'rganilgan. Ko'pgina olimlar tadbirkorlik subyektiga nisbatan innovatsion rivojlanish omillarining ikkita katta guruhini ajratib ko'rsatishadi: tashqi va ichki muhit omillari. Har doim tashqi va ichki omillar o'rtasida dialektik o'zaro ta'sir va o'zaro bog'liqlik mavjud: ichki omillar rivojlanish dvigateli, tashqi omillar esa rivojlanish uchun sharoitdir [6].

Ko'pgina zamonaviy tadqiqotchilar innovatsion rivojlanishning tashqi va ichki, asosiy va yordamchi, obyektiv va subyektiv, nazoratli va nazoratsiz, muhim va

ahamiyatsiz, to'g'ridan-to'g'ri (bevosita) va bilvosita (vositali) omillarining obyektiv mavjudligi, o'zaro bog'liqligi, o'zaro kirimlilik va o'zaro ta'siriga e'tibor qaratmoqdalar.

Ko'rib chiqilgan omillarni hisobga olgan holda va innovatsion jarayonni rag'batlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, shuningdek, raqobatbardosh milliy innovatsion tizimni shakllantirish orqali muvozanatli, barqaror va ijtimoiy yo'naltirilgan rivojlanish omili bo'ladigan iqtisodiy o'sishga erishish mumkin.

Innovatsion rivojlanishning barcha omillari davlatning iqtisodiy resurslari hisoblanadi, shuning uchun ular iqtisodiyotning tarkibiy elementlari sifatida ichki xo'jalik aylanmasida ishtirok etadi. Boshqaruv darajasida innovatsion resurslar boshqaruv subyektlarining har qanday ta'siriga turlicha munosabatda bo'ladi, shuning uchun bu ta'sirning mohiyatini, ta'sir darajasini va ijtimoiy-iqtisodiy tizimlardan reaksiya darajasini aniqlash juda muhimdir.

Bunday omillarni aniqlashning qiyinligini, A.A. Kisurkin birinchi navbatda ularning ko'p o'lchovlilikida; ikkinchidan, muhim ta'sir etuvchi omillarni topish qiyinchiligida; uchinchidan, bu omillarni xolis baholashda; to'rtinchidan, davlat (mintaqa) ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatining tashqi va ichki muhitida ro'y berayotgan o'zgarishlar bilan bog'liq holda ijtimoiy-iqtisodiy tizim dinamikasini hisobga olinishi ekanligini ta'kidlagan.

Davlatning innovatsion salohiyatini ro'yobga chiqarish va tegishli boshqaruv ta'siri innovatsion soha faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Bugungi kunga kelib, A.A. Kisurkinning ta'kidlashicha, innovatsion sohada amalga oshirilayotgan faoliyat samaradorligini aniqlashning umumiy yondashuvlari hali ishlab chiqilmagan. Shuning uchun innovatsion transformatsiyalarning samaradorligi masalalari bevosita innovatsion tizimlarda rivojlangan aniqlangan tendensiyalar va qonunchiliklarning xususiyatlariga bog'liq. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni rivojlantirish omillari va shartlarini innovatsion yondashuv nuqtai nazaridan o'rganish quyidagi vazifalarni hal qilish imkonini beradi:

- innovatsion tizimlarning samarali faoliyati uchun eng muhim omillarni izlash;
- davlat yoki muayyan hududning innovatsion rivojlanishi uchun institutsional shart-sharoitlarni aniqlash;
- innovatsion rivojlanishga ta'sir etuvchi omillarning o'zaro aloqadorligi va iyerarxik tuzilishini aniqlash;
- ilmiy natija va investisiya qilingan mablag'lar nisbatining optimal mezonlarini aniqlash, shuningdek, mezonlarning eng tejankor kombinatsiyasini tanlash;
- aniqlangan innovatsion rivojlanish omillarining integratsion ta'siriga iqtisodiy tizimlarning reaksiyasini baholash [3].

Davlat iqtisodiyotining innovatsion sektoridagi jarayonlarni o'rganish va asosiy ilmiy-texnikaviy yo'nalishlarni baholash bilan bir qatorda strategik rejalashtirish tartibini amalga oshirishning asosi SWOT-tahlili tartibi hisoblanadi. SWOT-tahlili turli

darajadagi ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda ichki va tashqi muhit omillarini baholash uchun ishlatiladi [2].

O‘zbekiston Respublikasining innovatsion tizimi rivojlanishning hozirgi bosqichida tarqoq innovatsion infratuzilmaning mavjudligi, MIT elementlari o‘rtasidagi tarqoqlik va mahalliy ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarni joriy etishning murakkabligi bilan tavsiflanadi. Innovatsion tizimning kuchli va zaif tomonlarini batafsilroq tahlili 2- jadvalda keltirilgan.

2-jadval

SWOT-tahlil

Kuchli tomonlari	Zaif tomonlar
- Geografik joylashuvi, foydali qazilmalarning mavjudligi. - Arzon ishchi kuchining mavjudligi. Iqtisodiy o‘rish sur‘atlari. - Axborot texnologiyalari resurslari.	- Tadbirkorlikning innovatsion faolligining past darajasi. Innovatsion madaniyat. - Davlat, xususiy sektor, universitetlar o‘rtasidagi muvofiqlashtirish va o‘zaro hamkorlikning past darajasi. - Asosiy kapitalning texnologik tuzilmasining eskirganligi. - Venchur moliyalashtiruvining rivojlanmagan bozori.
Imkoniyatlar	Tahdidlar
- Texnologik rivojlanish, texnoparklar yaratilishi. - Raqobatbardosh mahsulotlar yaratish va u bilan yangi bozorlarga chiqish. - Mavjud mahsulotlarni takomillashtirish va Rossiya Federatsiyasi orqali xalqaro savdoga kirish.	- Texnologik qoloqlik. - Davlat aralashuvi tufayli tadbirkorlik faoliyati rag‘batlantirilishining pasayishi. - Maxsus iqtisodiy sharoitlar tufayli innovatsion faollikning pasayishi va yangi bozorlarga kirishning yo‘qligi.

Shuning uchun innovatsion tizim sohasida quyidagilar maqsadga muvofiqdir:

1. Xususiy sektorda innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish;
2. Xalqaro hamkorlikni mustahkamlash;
3. Texnoparklar, innovatsion markazlarni shakllantirish;
4. Fan, universitetlar va biznes hamkorligini rivojlantirish;
5. Ma’muriy to‘siqlarni bartaraf etish;
6. Tadqiqot va ishlanmalarni biznes jarayonlariga jalb qilish uchun shart-sharoitlar yaratish.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning jadallashuviga davlat siyosatini amalga oshirish jarayonida shakllanadigan makroiqtisodiy sharoitlar bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Iqtisodiy jarayonlarni raqamlashtirish iqtisodiyot sohasidagi davlat siyosatining bir qator zamonaviy yo‘nalishlari ekanligini ta’kidlash kerak. Iqtisodiyotni raqamlashtirish milliy

iqtisodiyot tarmoqlarida innovatsion texnologiyalarni joriy etish, rivojlantirish va qo'llash, zamonaviy yuqori texnologiyali boshqaruv tizimlarini shakllantirishga qaratilgan transformasiya jarayonlarini amalga oshirishni belgilaydi.

Innovatsion rivojlanish har qanday hajmdagi va har qanday o'ziga xoslikdagi korxona va tashkilotlar uchun dolzarbdir. Xalqaro ko'lamdagi tendensiyalar (o'zib ketayotgan texnologiyalarning paydo bo'lishi, raqamlashtirish va mahsulotlarning hayot aylanmasining tezlashishi) aksariyat sohalarda tub o'zgarishlarga olib keladi. Qiymat zanjirlari o'zgarmoqda, rentabellik zonalari surilib ketmoqda, yangi subyektlar paydo bo'lmoqda - bu iqtisodiyot tarmoqlaridagi kuchlar muvozanatining o'zgarishiga keskin ta'sir qiladi, yangi g'oyalar va ishlanmalarni ilgari surishni sezilarli darajada tezlashtirmoqda. Yangi imkoniyat va tahdidlarning chastotasi, shuningdek, ularni bozorlarga kirib borish tezligi ortib bormoqda.

Shunday qilib, har yili yangi texnologiyalar zamonaviy voqelikka tezroq va jadalroq kirib boradi, bu esa korxonalar tomonidan ularni amalga tadbiiq etish vaqtini qisqartiradi. Masalan, 1997 yilda AQSHning 500 ta eng yirik korporatsiyalarining umumiy foydasida texnologik kompaniyalarning ulushi qariyb 9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2017 yilda bu ko'rsatkich 17 foizga oshgan [4]. Bunday o'zgarishlar yakkalanib qolmay, ular global tus olmoqda. Shu sababli, keng ko'lamli innovatsiyalardan foydalanish yetakchilikning majburiy sharti xarakterini oladi va barqaror raqobatdosh ustunlikni shakllantirishga yordam beradi.

Innovatsiyalar davlat uchun katta imtiyozlar bilan tavsiflanadi, chunki turli darajadagi innovatsion faollik YAIMning o'sishida (hosildorlikning o'sishi, aholining ixtiyoriy daromadlari va soliq tushumlari natijasida) o'z aksini topadi va alohida tarmoqlarning jadal rivojlanishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, shuni hisobga olish kerakki, innovatsiyalarning asosiy samarasiga turli soha va yo'nalishlarda mahsuldorlikni oshirish va texnologik o'zib ketishlar orqali erishiladi, xususan, texnologik innovatsiyalar ilg'or texnologiyalar va ichki jarayonlarni tashkil etishdagi yondashuvlarni joriy etish orqali samaradorlikni bevosita oshiradi.

Hozirgi bosqichda yutuqli innovatsiyalar sanoatning rivojlanish vektori va o'sish sur'atlarini tavsiflaydi. Masalan, global miqyosda avtomobilsozlik sanoati tomonidan yaratilgan qiymatning umumiy miqdori prognozlarga ko'ra, 2017-yildagi 3,5 trillion dollardan 2030-yilda 6,6 trillion dollargacha oshadi. O'z navbatida, hozirgi bosqich bozorning 98% ni egallagan an'anaviy texnologiyalar va biznes modellarining ulushi esa 50% gacha kamayadi [4].

Bugungi kunda turli xizmatlarni taqdim etuvchi raqamli platformalarni faol rivojlantirish mamlakat raqamli iqtisodiyotining ajralmas sharti va asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. Faoliyatning bunday dolzarb va muhim sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari qatorida platformalarni ishlab chiqishda ishtirok

etuvchi xususiy kompaniyalar uchun subsidiyalar, kreditlar, soliq va boshqa moliyaviy imtiyozlardan eng qulay foydalanishni ta'minlash mumkin.

Sanoat, qishloq xo'jaligi, savdo, aloqa va telekommunikatsiyalar, transport, logistika, moliya sektori, energetika va zamonaviy iqtisodiyotning boshqa sohalariga innovatsion texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish juda muhim.

Raqamli iqtisodiyotga o'tish quyidagi sohalaridagi texnologiyalarni majburiy takomillashtirishni belgilaydi:

- 1) Axborot ma'lumotlari oqimlari bilan ishlash (tumanli hisoblash, sun'iy idrok, kvant, kirib chiquvchi, superkompyuter texnologiyalari, neyron tarmoqlar, matematik modellash, blokcheyn va identifikatsiya texnologiyalari);
- 2) Ishlab chiqarish (3D- bosma, qo'shimcha texnologiyalar, robotlashtirish, kiber-fizik tizimlar, ochiq ishlab chiqarish texnologiyalari);
- 3) Atrof-muhit bilan o'zaro ta'sir ("miya-kompyuter" texnologiyasi, qog'ozsiz, mobil, uchuvchisiz, biometrik texnologiyalar) va boshqalar.

Raqamli iqtisodiyot rivojlanishining yuqori dinamikasi zamonaviy tadqiqotchilar tomonidan elektron axborot inqilobi (neyron-tarmoq texnologik inqilob) natijasi sifatida izohlanadi. Aloqa va telekommunikatsiya sohasida raqamli transformatsiya amalga oshirilmoqda, bu yuklanishni kamaytirish, ma'lumotlar uzatish hajmini oshirish, jarayonlarni avtomatlashtirish va axborot ma'lumotlarini uzatish va saqlash xavfsizligi masalalarini hal qilish imkonini beradi. Buning asosiy sharti sifatida elektronikada texnologik yangiliklardan keng foydalanish zarurati yuzaga chiqadi [5].

Bu asrning birinchi choragi - yangi sanoat inqilobi davri. "Sanoat 4.0", "Raqamlashtirish" yoki "To'rtinchi sanoat inqilobi" atamaları allaqachon jahon ilmiy hamjamiyatining diqqat markazida mustahkam o'rin olgan. Dunyoning yetakchi mamlakatlari iqtisodiyoti innovatsiyalarni keng joriy etish jarayonlarini hisobga olgan holda o'z rivojlanishini qayta yo'naltirmoqdalar. Ammo Sanoat 4.0 nafaqat iqtisodiy sohaga ta'sir qiladi - jamiyat rivojlanishining boshqaruv, siyosiy, madaniy va boshqa jihatlarida ham o'zgarishlar kutilmoqda.

Mamlakatda uning raqobatbardoshligini ta'minlashga qaratilgan rivojlangan va samarali innovatsion tizimni shakllantirish davlatning uzoq muddatli ilmiy-texnikaviy va innovatsion siyosatining asosini tashkil qilishi mumkin bo'lgan istiqbolli ilmiy-texnikaviy yo'nalishlarni o'z vaqtida aniqlash kerakligini taqozo etadi. Binobarin, iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida fan-texnika sohasidagi ustuvor yo'nalishlarni tanlash, shuningdek, istiqboldagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish muammolarini hal etishning eng samarali vositasi bu Forsaytdir.

Ilmiy, ishbilarmon doiralar, davlat vakillarini ishtirokchilar va ekspertlar sifatida jalb etgan holda, forsayt ilmiy tashkilotlar, oliy o'quv yurtlari, korporatsiyalar, davlat hokimiyati organlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik va kooperatsiyani rivojlantirishga,

innovatsiyaning barcha ishtirokchilari o'rtasida aloqalarni o'rnatishga yordam beradigan tizimdir.

To'rtinchi sanoat inqilobi nisbatan yosh iqtisodiy hodisa bo'lib, uning o'ziga xos xususiyati uni o'rganish va prognozlashning murakkabligi, taqsimotning chiziqli emasligi va ushbu shartlardan kelib chiqadigan boshqa oqibatlardir. Binobarin, avtomatlashtirish, sun'iy idrok, kommunikatsiya texnologiyalari, mashinalarni o'rganish va boshqa texnologiyalarning rivojlanishi axborot ma'lumotlarining katta oqimini tezkor yig'ish va tahlil qilishni ta'minlash imkonini beradi, va ularning hajmi faqat oshib boradi. Zamonaviy jamiyatning vazifasi keyingi bosqichga o'tishda ilg'or texnologiyalardan foydalangan holda yaratilgan qiymatli natijalarni ta'minlash uchun – fikrlashni o'zgartirish, o'rganish va ma'lumotlar bilan ishlashni o'zgartirish lozim [7].

Xulosalar. Ilmiy tadqiqotlar natijalarini sarhisob qilar ekanmiz, shuni ta'kidlash joizki, yangi ma'lumotlar va texnologiyalarni boshqarish modellari XXI -asrning paydo bo'layotgan muammolari va so'rovlariga tezkor javob berish imkoniyatini beradi. Bu davlatning raqobatbardoshligi nuqtai nazaridan so'zsiz muvaffaqiyat omili sifatida ko'riladi. Shu nuqtai nazardan, mahalliy raqamli iqtisodiyotni shakllantirish innovatsion o'zib ketishning shartlaridan biridir. Bu qulay innovatsion muhitni tashkil etuvchi axborot-kommunikatsiya sohasida amalga oshiriladigan tashkiliy, iqtisodiy, texnologik va boshqa tadbirlar majmuidir. Innovatsion rivojlanishni faollashtirish iqtisodiyotni yanada sifatliroq va samaraliroq rivojlantirishning eng muhim shartidir. Shu nuqtai nazardan, davlatni raqamlashtirish juda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Бартюк О.В. Факторы инновационного экономического роста России [Электронный ресурс] // Интернет- журнал «Наукоеведение». – 2014. – № 6. – URL: <http://naukovedenie.ru/PDF/65PV N614.pdf>
2. Камбарова Ж.У. SWOT-анализ современного состояния национальной инновационной системы Кыргызской Республики в условиях Евразийского Экономического Союза (ЕАЭС) // Экономический вестник. – 2018. – № 3. – Б. 15–17.
3. Кисуркин А.А. Факторы, влияющие на инновационное развитие региона, и их классификация по уровням управления [Электронный ресурс] // Современные проблемы науки и образования. – 2012. – № 2. – URL: <http://www.science-education.ru/ru/article/view?id=5762>
4. Ковалев И.Л. Цифровая трансформация как катализатор инновационных процессов в экономике // Большая Евразия: Развитие, безопасность, сотрудничество. – 2019. – № 2-1. – Б. 374–380.
5. Мыльникова Л.А. Инновации и цифровизация российской экономики // Экономический журнал. – 2019. – № 1 (53). – С. 107–119.

6. Ушвицкий Л.И., Тер-Григорьянц А.А., Соловьева И.В. Факторы и условия инновационного развития экономики // Мир науки, культуры, образования. – 2014. – № 6 (49). – Б. 271–276.

7. Шилова Е.В., Дьяков А.Р. О феномене четвертой промышленной революции и его влиянии на экономику и управление // Вестник Прикамского социального института. – 2018. – № 3 (81). – Б. 86–95.